

Vatanparvarlik timsollari

Toshkent soliq kollejida 2019 yil 26 aprel kuni "Maxsus fanlar" kafedrasini tashabbusi bilan tashkil etilgan yurtimizning ikki buyuk sarkardasi Jaloliddin Manguberdi va Temur Maliklarning ona yurt, jonajon Vatan ozodligi yo'lida ko'rsatgan qahramonliklarini o'quvchilar ongiga singdirish orqali ularda vatanparvarlik tuyg'usini yanada yuksaltirish, yoshlari qalbida milliy g'urur, milliy iftixon tuyg'ularini shakllantirish ona Vatanga muhabbat, umumbashariy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, shuningdek, millatimiz tarixiga nisbatan hurmat ruhini oshirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbir yuqori saviyada o'tkazildi. Unda filologiya fanlar nomzodi, Xalqaro "Antik dunyo" va "Turon" fanlar akademiyalarining akademigi, TIQXMMI matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov hamda GIM fakulteti "Gumanitar fanlar" kafedrasni assistenti Muqimov Bahriiddinlar ishtirok etib mavzu yuzasidan o'z mulohazalarini bildirishdi.



"Maxsus fanlar" kafedrasini bosh o'qituvchisi Saida Jumagaldieva va kafedrasni jamoasiga Rahimboy aka o'zining samimi minnatdorchilagini bildirdi. Kollej direktori Firdavs Hasanovich Tillaevning yosh soliqchilarining ta'limi va tarbiyaviy jarayondagi yutuqlari ko'payishini tiladi. Ayni paytda R. Jumaniyozov kollejni bitkazuvchi talabalarga tahsilni muvaffaqiyatli tugatganlaridan so'ng institutimizga kelib qishloq xo'jaligi tizimida eng yetuk kadr bo'lib, el-yurt xizmatiga kamarbasta bo'lishlarini tilash asnosida ularni TIQXMMIga o'qishga taklif etdi. Tadbirda shu kollejning sobiq talabalari hozirda institutimizning peshqadam va iqtidorli talabalari ekanini ta'kidladi. Bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish borasida ibratli maslahat va yo'l-yo'riqlarini bayon etdi.



Toshken soliq kollejining sobiq o'quvchilari TIQXMMI talabalari "GM" fakulteti 107 - guruh talabasi Hasanov Azizbek, "SSTE va B" 104 - guruh talabasi Isroilov Mansur, "QSXET" fakulteti 106 - guruh talabasi To'raev Sarvarlarni o'quvchi yoshlarga namuna sifatida tilga olib o'tdi. Tadbirda ularning ishtirok etayotgani ham ahamiyatli bo'ldi. O'quv ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari Nurillo Bahromovich Roziqov tadbirni boshlab bergach, uni davom ettirgan Ma'naviyat va ma'rifat ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari Dilshod Elmurodovich Eshboboev tadbirdagi ishtiroklari, yoshlarga vatanparvarlik tushunchalarini Jaloliddin Manguberdi va Temur Malik siyosida yoritib mufassal ma'lumot bergenlari uchun ustozga samimi rahmatlarini izhor etdilar. Dilshod Eshboboev kollej direktorining imzosi bilan tayyorlangan TASHAKKURNOMAlarni topshirar ekan barchaga omadlar tiladi. Bunday ma'rifiy tadbirlar suv buloq ko'zini ochgani kabi yoshlarning ongu shuuriga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmasligi ayon. Tadbirda ishtirok etgan kollejning o'qituvchilari va 3-kurs o'quvchilari katta taassurotga ega bo'lishganini e'tirof etishdi.

"Gumanitar fanlar" kafedrasining assistenti B.Muqimov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov